

заинтересовало учащихся и способствовало их самостоятельному поиску дополнительных материалов, не предусмотренных в УМК.

Таким образом, можно сделать вывод, что для каждого человека, изучающего иностранный язык, важным фактором является развитие не только языкового компонента, но и поведенческого этикета, социального, культурного, с учетом социокультурных особенностей участников на родном языке. Благодаря их формированию происходит развитие социокультурной компетенции без ущерба для внутреннего мира человека, собственных убеждений. Все это предполагает полную обученность и зрелость обучающихся по отношению к той или иной культуре, что совершенно необходимо для успешного межкультурного общения.

Список используемой литературы:

1. Калинина Е.Э. «Социокультурная компетенция как многообразие» //Е.Э.Калинина – 2006.- 25с;
2. Зимняя И.А. «Психология обучения иностранному языку в школе»/ И.А. Зимняя. – М. : Просвещение, 1991. – 219 с.;
3. Гальскова Н.Д. «Межкультурное обучение: проблема целей и содержания обучения иностранным языкам»// ИЯШ. 2004. - №1. – С. 2-9.;

OLIY TA'LIM TIZIMIDA FANLARARO BOG'LANISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Israilov S.A.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

sukhrobisrailov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak iqtisodchilarini fanlararo aloqadorlik asosida ta'lim jarayonini tashkil etishga tayyorgarlikni takomillashtirishning kreativ modellari (qanaqa kreativ modellar) ta'lim jarayoniga tadbiriq etilgan. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha yangi ta'lim kontsepsiyasida "Ta'lim taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchli va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" deb e'tirof qilingan. Bu esa o'qitish metodikasining takomillashtirish, talabalarning didaktik hamda metodik tayyorgarliklarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish, elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish, ta'lim jarayonini kreativ modellar asosida takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: Iqtisod, ilmiy tadqiqot, ta'lim taraqqiyoti, fanlar, yondashuv, turli sohalar.

Ma'lumki, fanlararo bog'lanish hodisasi ko'p o'lchamli. U mazmunining ko'p qirraliligi, o'qitish metodlari va shakllarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bu esa talabalarning o'quv-bilish faoliyati bilan iqtisodchilarning o'qitish faoliyatining

o‘zaro bog‘lanishi asosini tashkil qiladi. O‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish muammosining yuzaga kelishi tarixiy nuqtai nazardan ta’lim jarayonining talabalarning ongida real dunyoning turli hodisalari to‘g‘risidagi bilimlarni alohida tizimli shakllantirishga yordam beradigan tuzilmaviy predmeti sababli paydo bo‘lgan.

Psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlarda iqtisod-matematik, psixologik-pedagogik, gumanitar va texnik-texnologik fanlarning o‘zaro bog‘lanishlari va ular asosida bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchini tayyorlashning nazariy va amaliy muammolari bilan bog‘liq savollar keng yoritilgan.

Fanlararo muammosini tarixiy jihatdan yondoshadigan bo‘lsak, u holda bu muammoga o‘tgan asr pedagoglari va hozirgi zamon tadqiqotchilari katta e’tibor qaratganligini ko‘rishimiz mumkin. V.N.Kelbakiani ta’kidlagandek, «bu muammo turli jihatlardan o‘rganilgan: uning rivojlanish tarixi, uning metodologik va nazariy ahamiyati, o‘quv fanlarida fanlararo bog‘lanishning mazmuni, o‘qitish va tarbiya jarayonida ularni amalga oshirish motivlari...»

Tiklanish davrida progressiv pedagoglar, o‘qitishda sxolastikaga qarshi chiqib, talabalarda iqtisod hodisalar va jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida tasavvurni shakllantirishning muhimligini ta’kidlagan edilar.

Dunyo pedagogikasining klassiki Ya.A.Komenskiy shunday ta’kidlagan edi: “O‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan hamma narsani xuddi shunday bog‘liqlikda o‘qitilish kerak, chunki bu narsa tizimli bilimlarni shakllantirishda juda muhimdir. U bilimlar tizimini shakllantirish uchun o‘quv fanlari o‘rtasida bog‘lanishni o‘rnatish kerak, deb hisoblagan. Ya.A.Komenskiyning fikricha, “hamma narsani o‘qitish kerak”. U oliy ta’lim bolalarning aqli, ahloqi, his-tuyg‘ulari va irodasini rivojlantiradigan, har tomonlama ta’lim berishi kerak deb hisoblagan.

Boshqa XVII asrning mashhur pedagogi va faylasufi Jon Lokk har bir sub’ektning o‘zining o‘zagi (sterjeni) bo‘lib, uning atrofida his-tuyg‘u organlari yordamida egallagan bilimlari birlashadi, deb hisoblaydi. U bunday o‘zak sifatida bir o‘quv fanining mazmunini nafaqat fan asoslari to‘g‘risida bilim olish, balki ulardan amalda foydalanish uchun kerak bo‘ladigan turli-tuman malakalarni ham egallash, boshqa fandan olingan ta’riflar, elementlar va faktlar bilan to‘ldirilishi kerakligi to‘g‘risidagi g‘oyani hisoblagan.

Fanlarni o‘qitishdagi bog‘lanishlar haqida I.Pestalottsi, I.Gerbart, A.Disterverg va boshqa pedagoglar ham o‘z fikrlarini bildirishgan. Ular o‘quv fanlari orasidagi bog‘lanishlarni ta’lim oluvchilar o‘zlarini o‘rab turgan olamning xilma-xilligi va yaxlitligini ko‘ra olishlari uchun yanada chuqurroq bilim olish usuli deb tushungan. O‘qitiladigan fanlar orasidagi atrofda voqelikni to‘g‘ri idrok etishga yordam beradigan bog‘lanish to‘g‘risida I.G.Pestalottsi shunday yozgan: “O‘zaro bog‘langan buyumlarni o‘z ongginga ularning tabiatdagi haqiqiy bog‘lanishida qanday bo‘lsa, shunday keltirgan” bunda u ayniqsa yuqori guruxlarda bir fanning boshqasidan ajralib qolish havfi to‘g‘risida gapirgan.

XVII asrda yashab ijod qilgan nemis pedagogi, psixologi va faylasufi I. Gerbartning ishlarida ham shunday fikrlar keltiriladi. U oliy ta’lim ta’lim oluvchilarining aqliy faoliyati o‘quv fanlari orasidagi bog‘lanishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq deb hisoblaydi. I.G.Pestalottsining izdoshi, nemis pedagog-demokrati A.Disterverg ham turli o‘quv fanlarini o‘rganishda fanlararo bog‘lanishning zarurligi

haqida gapirgan.

Xuddi shu davrda demokratlardan tashqari, mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy ham klassik pedagogikada fanlararo bog'lanishning didaktik ahamiyatini asoslab bergan. U fanlararo bog'lanishni amalga oshirish zarurligini XIX asrda endi tug'ilayotgan psixologiya fani nuqtai nazaridan asoslab berishga uringan. U ta'lim oluvchilarda o'quv fanlari o'rtasidagi bog'lanishlarsiz tizimli va yaxlit bilimlarni shakllantirib bo'lmaydi deb hisoblaydi. Uning fikricha bunday bilimlarning yo'qligi, juda katta nazariy materialni yodlab, real hayotda qo'llashni bilmaydigan odamlarni shakllantiradigan sxolastik oliy ta'limning asosiy kamchiligi hisoblanadi. K.D.Ushinskiy biror bir fan tomonidan beriladigan bilimlar va g'oyalar dunyoni yorug' va imkon qadar keng ko'rish asosida qurilishi, ya'ni nozik va tartibli tizim kabi bo'lishi kerak deb hisoblaydi. K.D.Ushinskiy oliy ta'lim da iqtisodchilar faqat o'zlarining fanlariga oid muammolar bilan cheklangan, ta'lim oluvchilarning umumiy aqliy rivojlanishiga e'tibor bermasdan o'qitishni yetarlicha keskin tanqid qiladi.

Bu buyuk rus pedagogi tanqiddan tashqari biz tadqiq qilayotgan hodisaga nisbatan ham o'z nuqtai nazarini bayon qiladi: "Umumta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarni taqsimlashda alohida fanlarni emas, balki ta'lim oluvchi ruhining yaxlit va uyg'un, asta-sekinlik bilan va har tomonlama rivojlanishini nazarda tutish kerak".

K.D.Ushinskiy pedagoglar va didaktiklarning nazariy merosi fanlararo bog'lanish nazariyasining rivojlanishiga va ishlab chiqilishga juda katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bu nazariya XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashab o'tgan ko'plab pedagoglarning, xususan, V.Ya.Stoyunin, D.D.Semenov, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqalarning ishlarida aks etgan. Bu pedagog-didaktiklarning tadqiqotlarida fanlararo bog'lanish asosida o'qitishni tashkil qilishning quyidagi tamoyillari aniqlangan:

- o'quv fanlari orasidagi bog'lanishni aniqlash;
- turli fan iqtisodchilari tomonidan umumiy atamashunoslikdan foydalanishdagi turli qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;
- alohida fanlarning mazmunini o'qitishdagi izchillik;
- turli fanlardan olingan bilimlarning o'zaro bir-biriga singdirilishi;
- nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- iqtisodchilarning o'z ta'lim oluvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikda ishlashi kabi fikrlar asoslangan.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashab o'tgan ko'pgina buyuk pedagoglar ta'lim jarayonida, eng avvalo, oliy ta'lim tizimida fanlararo bog'lanishni amalga oshirish zarurligini tan olganlar, deb xulosa chiqarish mumkin.

Birinchi marta Rossiyada turli o'quv fanlari o'rtasidagi fanlararo bog'lanish g'oyasi XX asrning 30 yillarida sobiq sovet oliy ta'limida amalga oshirilgan. Yangi oliy ta'limni (yagona mehnat umumta'lim oliy ta'limini) yaratish davrida o'sib kelayotgan avlodga ta'lim berish, o'qitish va tarbiyalash mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqilgan. Yangi oliy ta'lim tizimining yuzaga kelishida fanlararo bog'lanish muammosini amalga oshirishda o'sha davrning mashhur maorif xodimi, keng umumiy ta'lim, haqiqiy fanga oid bilimlar, o'qitishning mehnat bilan bog'lanishi, politexnik

tarbiyaning aqliy, mehnat, jismoniy, ahloqiy va estetik tarbiya bilan birga olib borilishi uchun kurashgan A.V.Lunacharskiy katta rol o'ynagan. Iqtisod-matematik sikl fanlarini o'qitishda fanlararo bog'lanish g'oyasiga kelsak, u o'tgan asrning 30 yillarida, o'qitishning sinf-dars tizimi yana qaytib kelganida rivojlandi. Uning fikricha o'quv fanlarini o'zaro bog'lab o'qitish g'oyalari puxta o'ylangan holda o'quv dasturlarida aks etishi kerak. U aniq misollarda fanlararo bog'lanishlarning ta'sirini ochib berdi, ular bilish faoliyatini rag'batlantirishini, talabalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam berishini, fanning turli sohalarida fikrlash doirasini kengaytirishini ta'kidlab o'tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentabr O'RQ-637 son Qonuni.
2. Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4732-son Farmoni. 2015 yil 12 iyun.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son farmoni. 2017 yil 7 fevral.
4. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son Qarori. 2017 yil 20 aprel.
5. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3151-son Qarori. 2017 yil 27 iyul.

10-11-SINF O'QUVCHILARDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Ermamatova M.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

ermamatovamaftuna80@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada o'quvchilarda ta'lim jarayonining muhim komponentlaridan bo'lgan mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslari va uni o'ziga xos jihatlari, bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, uning kasbiy shakllanishi va shaxsiy sifatleri, kompetentligi, axloqiy fazilatleri, kasbiy mahorat, mahoratga erishish yo'llari, ijtimoiy faollikga asos bo'luvchi omillar, ya'ni barkamol shaxsni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishning zarurligi, ma'naviy, o'z-o'zini rivojlantiruvchi ijtimoiy faol shaxsni yuzaga keltirish masalasi xususida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik tayyorgarlik, o'qitish, o'rganish, tayyorlik, fikrlash, tafakkur, didaktika, mantiq ilmi, mantiqiy fikrlash, didaktik jarayon, rivojlantirish.